

A. A. BICK



BULBUL
GHAMANI

2021.01.20
B-34

u n u z

Rus adabiyoti durdonalari

ALEKSANDR ALEKSANDROVICH
BLOK



**BULBUL
GHAMANI**

Dostonlar va she'rlar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-1
K BK 84(2Ros-Rus)
B 76

Rus tilidan **A. Muxtor, E. Vohidov, M. Ikrom, Shukrullo, J. Jabborov, A. Sher, O'. Mirzayor, O'. Haydar, A. Azim, Z. Ne'mat, Go'zal Begim, O. Suyundiqova, D. Abdurahmon qizi** tarjimasi

O'zbek she'riyati muxlislariga o'zining go'zal lirik she'rlari bilan tanish bo'lgan Aleksandr Aleksandrovich Blok (1880–1921) o'zi tiriklik chog'idayoq umummilliy e'tirofga sazovor bo'lgan yagona simbolist shoir hisoblanadi.

U XIX asr boshlaridagi «Kumush davr»ning oltin she'riyatidan o'rin olgan o'z so'ziga hamda o'z ovozigga ega bo'lgan zabardast rus shoirlardan biridir. Shoirning «Go'zal bonu haqida she'rlar» nomli ilk kitobi 1904-yilda nashr etilgan. Uning nomi rus she'riyatida A. Pushkin, M. Lermontov, S. Yesenin kabi ulug' shoirlar bilan yonma-yon turishga haqlidir. A. Blokning «O'n ikki», «Skiflar», «Intiqom», «Bulbul chamani» kabi dostonlari va lirik she'rlari rus adabiyoti xazinasining nodir durdonalari sanaladi.

Shoirning she'rlari juda ko'p ijodkorlar tomonidan turli yillarda o'zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilingan. O'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, tafakkurini kengaytirish maqsadida qiyosiy tarjimalar ham berildi.

Qo'lingizdagi kitobdan esa shoirning eng go'zal she'rlari o'rin olgan. Biz uni sizga taqdim etishdan mamnunmiz.



ISBN 978-9943-7334-2-8

© A. Muxtor va boshq. (tarj.), 2021
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



O'N IKKI

(Doston)

1

Tim-qora tun.
Oppoq qor.
Shamol, quyun!
Odamlar, qadamlar beqaror.
Shamol,quyun –
Tutgan olam uyin!

Shamolda qor girkapalak,
Mayin va oq.
Qor tagi – muz.
Yo'llar tayg'oq;
Pastlik, o'rlik,
Yo'lovchilar har qadamda
Yiqiladi –
oh, oh, sho'rlik!
Binolardan daraxt ayrisiga
Ip tortilib
Plakat osilgan:
«Butun hokimiyat Ta'sis Majlisiga!»
Deb yozilgan.
Kampir garang – yig'lagudek,
Tushunmaydi – bu plakat nega kerak,
Uvol bo'pti shuncha chit,
Chamalab boq:
Paytavalik bo'lar edi qancha yigit,
Bari, axir, yalang oyoq...

Kampir kurk tovuqday, –
Oyoq osti muz, –
Qorni kechib, bir amallab yo'lga chiqadi:
– Oh, oh, Bibimaryam, madadkorimiz!
– Oh, oh, bolsheviklar go'rga tiqadi!

Shamol yular goh-gohida,
Sovuq chimchir undan oshirib!
Burjuj turar chorrahada
Burnin yoqasiga yashirib.

«Bunisi kim?» Shipshib gapiradi,
Patak sochi uzun, parishon.
– Sotqinlar!
– Rossiya tugadi...
Adib bo'lsa kerak –

Va'zxon...

Ana, chetlab o'tib, qorga bekindi,
Etagin sudragan ro'dapo.
Hovuring juda past, nimaga endi,
O'rtoq pop?

Esingdami. bir vaqt o'zingdan
Oldinda yurardi qorning,
Oltin krest bilan xalqning ko'ziga
Yaltirab turardi qorning?

Ana, oyimtilla, qunduz yoqalik,
Dugonasi bilan ko'rishdi:
– Biz yig'ladik, biram yig'ladik... –
Dedi-yu, qoqilib, uzala tushdi!
Hay, hay, bu ne hol!
Ko'tar, qo'ltig'idan ol!

Sho'x shamol oladi,
Darg'azab, xursand.



Oyoqdan iladi
Bo'sh kelsang.
Bebosh shamol
Sig'may haddisiga,
«Butun hokimiyat Ta'sis Majlisiga!»
Degan plakatni

yulqib-yuladi.

Uzoqdan tovushlar olib keladi:

... Bizlarda ham bo'ldi majlis...

... Manov binoda...

... Muhokamadan so'ng

Qaror qildik biz:

Tonggacha – yigirma besh,

bir galga – o'n so'm...

... Kamiga unash yo'q...

... Ketdik, yotamiz...

Yarim tun yaqin.

Ko'chalar bo'm-bo'sh.

Bir yupun daydi,

Bukchaygan, xomush,

Ham yel bo'zlaydi...

Hey, sho'ring qurg'ur,

O'pishaylik...

Non!

Hoy, to'sma, tez yur!

Tim-qora osmon.

G'azab bu, g'azab

Dillarda qaynoq...

Shum, ezgu g'azab,

Hushyor bo'l,

O'rtoq!

Qor to'zg'itib shamol yeladi.
O'n ikkita odam keladi.

Miltiqlar qayishi yaraqlar,
Atrofda – chiroqlar, chiroqlar...

Tishlarda papiros, g'ijim kartuzning
Soyaboni tagidan mo'ralashardi.
Yelkalarga yana g'ishtin tuzning
Shaklini ham solsa zap yarashardi!

Hurriyat, hurriyat,
Bebut, besanam!
Tra-ta-ta, tra-ta-ta,
Qadamlar shaxdam!

Sovuq-ku, o'rtoqlar, hoy, sovuq!
– Vanka mayxonada Katka pinjida...
– Kerenkasi bormish paypoq ichida.

– Vanyushka o'zi ham endi badavlat...
– O'zimizdan edi, aynipti soldat!

– Hay, Vanka, itvachcha, burjuj, tekinox'r,
Mening dildoringa yaqinlashib ko'r!

Hurriyat, hurriyat,
Bebut, besanam!
Katka Vanka bilan band...
Tra-ta-ta,
Bos qadam!
Atrofda – chiroqlar, chiroqlar...
Yelkada qayishlar yaraqlar...

Inqilobiy saflar, bos qadam!
Dushman tinmas, uxlamas bir dam!

Miltiqni mahkam tut, dadil bo'l, do'stim,
Mo'ljallab otaylik haromxo'r Rusni!

Dindor Rusni,
Qorindor Rusni!
Hey, bebut, besanam!

3

Bizning yigitlar ham ketishdi
Qizil gvardiya safiga.
Qizil gvardiya safida –
Yovqur boshlarini o'qqa tutishdi!

Jon shirin, jonon shirin,
Dilda kulfatning tig'i!
Yelkada juldur chopon,
Avstriya miltig'i!

Burjuyning dunyosiga
O't qo'yamiz qasoskor,
Qonli yong'in turar jahonda,
Yorlaqa, parvardigor!


4

Qor bo'ralar. Katka bilan
Uchar Vanka bezori.
Izvoshining shotisida
Ilintiris fonari...

Oh, oh, qaraya!..

Vanka, ahmoq bashara,
Shop mo'ylovi qop-qora.
Eski shinel egnida...

Mo'ylovini buraydi,
O'pich so'raydi...



Vanka shunday – keng yagʻrin!
Vanka shunday – soʻzamol!
Katkaga ochar bagʻrin,
Kotka esa – lol...

Boshin tashlar orqaga,
Tishlari sadafday oq...
Katya, Katya, tentagim,
Afti yapaloq...

5

Momiq boʻyningda, Katya,
Pichoq izi bitmagan.
Mammang ostida, Katya,
Tirnoq, izi ketmagan!

Oʻyinda sernoz ekan. oh!
Oyoqchasi soz ekan!

Shaffof koʻylak kiyib yurding –
Yuraver-chi, koʻraylik!
Yunker bilan davr surding –
Suraver-chi, koʻraylik!

Sen ayshingni surarding,
Shuv etardi yuragim!

Esingdami, u ofitser –
Pichogʻimga duch kelgan...
Eslaysanmi, javob ber,
Yo xotirang eskirgan?

Duch kelgan pichogʻimga!
Kel yana quchogʻimga!
Minon shokoladi yerding,
Sur etiging olifta.

Yunkerlarga jazman eding,
Soldatlarga qolibsani!

Eh, mayliga, zino qil!
Osoyish topar ko'ngil!

6

...Yana ro'paradan ot qo'yib tikka,
Baqirib-chaqirib uchar izvoshchi...

To'xta, hoy! Andryuxa, qarashib yubor,
Petruxa, ortidan o'tib bir bos-chi!..

Paq-paq-paq! Paq-paq-paq! Paq-paq-paq!
Qor quyuni turdi osmonda oppoq!

Vanka tushgan izvosh chap berib qochdi...
Bular mo'ljal olib yana o't ochdi...
Yana: paq-paq! Ta'zirin yedi.

.....
Birovning yorini quchmagin edi.

Yo'q, qochib ketibdi! Qarab tur, hayvon,
Baribir men seni qo'ymayman omon!

Katkachi? U qani? – Mana, qotibdi!
Kallasidan o'q yeb yotibdi!

Ha, qalaysan endi? – G'iq etmaydi-ku...
Yot, qorda yotaber, g'ar, kafaning shu!..

Inqilobiy saflar, tashlayber qadam!
Dushman tinmas, uxlamas bir dam!

O'n ikkilar kelar yana
 Qo'lda miltiq, belda o'q.
 Faqat sho'rlik qotil, mana,
 Ruxsorida qoni yo'q...

U, kalovlab qolmayin deb,
 Tezlatar qadamini.
 Sharfi bo'ynidan bo'qqandek,
 Rostlolmaydi damini...

– Xo'sh, og'ayni, hovuring past?
 Ha, o'rtoq, shoshildingmi?
 Xo'sh, Petruxa, yaxshi emas,
 Katkaga achindingmi?

– Nima qilay, jon og'ayni,
 Sevar edim, kuyladim...
 Shu qiz bilan o'tar edi
 Sarxush qora tunlarim...

– Ko'zlarida olov chaqnar,
 Sho'x, shaytoni bor edi.
 Shundoqqina o'ng kiftida
 Moshdek xoli bor edi.
 Nobud qildim, men ahmoq,
 Jahl ustida... oh, oh!

– Yig'ishtir-e, oh-vohingni!
 Nima, Petka, hezmisan?
 – Yuragini bo'shatmoqchi,
 Hasrati ko'p – sezmayсан!
 – Tiklab ol umurtqangni!
 – O'zingni bos, og'ayni!

– Ko'ngling ovlab o'tirgali
Xonasi emas bunda!
Qadrdon o'rtoq, hali
Og'ir kunlar oldinda!

Petruxa uqdi chog'i,
Qo'ydi jadallashini...
Rangi ro'yi ochilib,
Ko'tardi kallasini...

Bas, bas!
O'ynab-kulish ayb emas!
Qulflansin qo'ralar,
Bugun o'g'ri oralar!

Och mayxona eshigin –
Yupunlar bazmi bugun!

8

Oh, qayg'u-alam!
G'ashlig-u kulfat,
O'limga ulfat!

Bir kayf-u safo
Surganim bo'lsin...
Bir huzur ko'rsam,
Ko'rganim bo'lsin...

Bir pista berib,
Erkalay, erkalay...

Bir pichoq solib,
Tilkalay, tilkalay!..

Qoningni ichaman, hay burjuj,
Yonmoqda ichim,

Ul qora qoshim,
Jononim uchun...
Yo parvardigor, yupat qulingni...
G'ashman!

9

Eshitilmas shahar suronlari,
Nevskiy uzra oqar bulutlar.
Endi yo'qdir jandarm qironlari,
Ichmayoq o'ynayber, yigitlar!

Yoqasiga yashirib burnini
Turar chorrahada burjuy qoziqdak.
Orqasiga qisib dumini
Suykaladi tullagan ko'ppak.

Och it kabi burjuy, bezabon,
Xuddi savol alomatiday.
Eski dunyo daydi itsimon
Dumin qisib turar ortida.

O'ynab qoldi izg'irin,
Uh, bo'ron, bo'ron, bo'ron!
Ko'risholmay bir-birin,
Qilishar shovqin-suron!

10

Qor girdobi tip-tikka,
Intilar yuksaklikka...

– Falokatdan o'zing asra!
– Petka, qo'y kalimangni!
Saqlab qolganmi sira
Ikonang seni, meni?
Ongsiz ekansan, mayli,

O'ylab qara tanangga –
Katka ishqı tufaylı
Qon yuqdi axir senga!
– Inqilobiy saflar, oqing!
Tinim bilmas yov yaqin!

Olg'a talpin, olg'a qalq,
Ishchi xalq!

11

Borar ezgu kalimasiz
O'n ikkilar – shiddatkor.
Ayagulik hech nimasiz,
Hamma narsaga tayyor!

Multiqlari qurch nayzalik;
Yov ko'rinmas, qorong'u...
Tol ko'chalar pastqam, xoli,
Bo'ron o'ynaydi g'uv-g'uv...

Qor uyimi ko'pchigan,
Etik botar qo'njidan...

Qizil bayroq
Hilpiraydi.

Gurs-gurs oyoq,
Yer titraydi...
Yov dam uyg'oq,
Dam mudraydi...
Bo'ron to'sar saflar ko'zin,
Kun uzun,
Tun uzun...
Olg'a talpin, olg'a qalq,
Ishchi xalq!

Hokimlarcha tashlashar oyoqni,
 – Yana kim bor? Chiqaqol!
 Oldinda qizil bayroqni
 Hilpiratadi shamol...

Oldinda – qor uyumlari;
 – Qorda kim bor? Qani, chiq!
 Orqada gado singari
 Kalovlaydi och qanjiq...

Ilashma, hey qo'tir tullak,
 Yo nayzaga olaymi?
 Eski dunyo, ket ko'zimdan,
 Yo jag'ingga solaymi?

Hamon qolmas, tishin qisib,
 Och bo'riday, sovqotgan.
 Daydi itning dumi qisiq...
 – Hay, kim u kelayotgan?

– Kim ol bayroq silkigan
 Qorong'uda yiqilib?
 – Kim yuripti tulkiday
 Pastqamlarda biqinib?

– Afsus qilasan topsak,
 Tirik taslim bo'laqol!
 – Ey, birodar, chiq, o't ochsak,
 Yomon bo'ladi ahvol!

– Paq-paq! Faqat binolardan
 Aksi sado keladi...



Faqat bo'ron qor to'zg'itib
Qah-qah urib kuladi...
Paq-paq-paq!
Paq-paq-paq!

Hokimlarcha tashlashar oyoq;
Orqada – och it, xolos.
Oldinda – qonli bayroq
Va qor ichra ko'rinmay,
O'qni nazarga ilmay,
Mayin hatlab qyunlardan,
Inju-sadaf uchqunlardan
Oq toj kiygan sarafroz –
Kelur Isus Xristos.

1918

Asqad MUXTOR tarjimasi.





SKIFLAR

(Doston)

*Panmo'g'ulizm! Garchi dahshatli bu nom,
Ammo qulog'imga baxsh etar orom.*

Vladimir Solovyev

Bizlar millionlarmiz. Biz – olam jahon,
Bellashing sizda gar bo'lsa iqtidor.
Ha. biz skiflarmiz. Osiyoiy qon.
Qiyiq ko'zlarimiz qattol va xunxor.

Sizga zamon-zamon. Bizga-chi bir on.
Bizlar itoatkor qulbachcha go'yo –
Mo'g'ullar bir yon-u, Ovrupo bir yon,
Biz qalqon ushladik ikki irq aro.

Asrlar, asrlar o'txonasida
Suron karnaylari qo'yildi sizga.
Lissabon, Messina bo'lganda payhon,
Bu mashum ertakdek tuyuldi sizga.

Asrlar sharq tomon ko'zni tikdingiz,
Bizning injulardan to'ldirib hamyon.
Asrlar bepisand fursat kutdingiz
Och to'plarga bizni etmoqqa nishon.

Mana, fursat yetdi. Boshimiz uzra
Qanot qoqdi kulfat. Har kun ming alam.
Ammo vaqt kelarki, qolmagay sira
Sizning Pestumlardan nom-u nishon ham.

Ko'hna dunyo! Tirik ekansan hali,
Hali shirin azob berarkan hayot,
Qadimgi donishmand Edip shoh yanglig'
Sfinks qoshida bir lahza jim qot!

Rossiya – Sfinks. Xushnud va nolon
Qop-qaro qoniga belangan vujud
Tikilar, tikilar, tikilar sen tomon,
Nafrati behudud, mehri behudud.


Ha, bizning qonimiz sevganday sevish
Sizga nasib emas va bo'lmas aslo.
Sizga allaqachon begonadir ishq,
O'rtab yondirguvchi, qilguvchi ado.

Sevamiz ilohiy hislar dunyosin,
Sovuq raqamlarning haroratin ham.
Anglaymiz tumanli nemis dahosin,
Gall so'zin ma'ni-yu kamolotin ham.

Eslaymiz Parijning do'zax ko'chalari,
Venetsiya salqin sabolarini.
Limonzor bog'larning xush bo'ylari-yu
Kelning tumanli binolarini.

Biz tanni sevamiz, sevamiz dard-la,
Uning rang-u ta'min va hidin tengsiz.
Bizlar gunohkormi, so'ngaklaringiz
Sinsa bizning og'ir, nozik qo'llarda?!

Yuganidan ushlab asov biyalarning
Belin sindirmoqni qilganmiz odat.
Bosh egmagan qaysar joriyalarni
Qo'lga qo'ndirmoqni qilganmiz odat.



Qani, keling bizga! Nechun otashlar?
Otashday bizning tinch og‘ushga keling.
Vaqt borida qinga jo bo‘lsin xanjar,
Bizga og‘a bo‘ling! Bizga do‘st bo‘ling!

Yo‘q esa – bari bir yana biz uchun,
Ahdni buzmoq kelar bizning ham qo‘ldan.
Siz tavqi la‘natga qolursiz butun
Tarixdan, kelajak majruh nasldan.

Biz-chi, yuz buramiz go‘zal Ovrupodan,
Bag‘riga oladi o‘rmonlar bizni.
Sizga o‘giramiz so‘ng tamosha uchun
Qora osiyoiy basharamizni.

Qani keling, keling, barcha, Uralga,
Sizga janglar uchun ochamiz maydon.
Oqil, ko‘ksi to‘la integralga,
Temir mashinalar boshlasin qiron.

Ammo biz sizlarga bo‘lmaymiz qalqon.
O‘tga kirmagaymiz endi o‘zimiz.
Borarkan qiyomat jangi beomon,
Chetdan boqar sizga qiyiq ko‘zimiz.

Sira qo‘zg‘almaymiz qattol yovuz xun
Shaharlar kulini sovurganda ham.
Hatto o‘liklarni talaganda ul,
Oq tanlar go‘shini qovurganda ham.

So‘nggi bor – ko‘zni och, ey ko‘hna ochun!
Tinch mehnat bazmiga xushnud, sarafroz –
Og‘alik bazmiga so‘nggi bor bukun
Chorlayotir seni vahshiy soz!



SHOIRLAR

Shahar chekkasida sokin ko'cha bor,
Bu yerda shoirlar turishar edi.
Ular bir-birini uchratib har bor.
Nafratli jilmayib ko'rishar edi.

Quyosh tushmas edi bu zah ko'chaga,
Yil to'rt fasl botqoq bo'lardi bu yer.
Bu ko'chaning ahli tongdan kechgacha
Sharob ichar edi, yozar edi she'r.

Mastlikda qilishib izhori do'stlik,
Bir-birin ko'klarga ko'tarishardi.
Hushyorlikda esa, qulflab eshik
Hasad bilan she'rga o'tirishardi.

So'ng ko'ppak singari chiqib inlardan,
Dengiz tomonga jim boqishardi, yo –
Ko'z olmay yo'lovchi xushbichimlardan
Berishardi qadd-u sochlarga baho.

Oltin zamonlardan o'y surishardi,
Barcha noshirlarni xo'p yerga urib.
Bir chechak ko'rsalar, ko'zga surishardi,
Yig'lashardi parcha bulutni ko'rib.

Shunday yashar edi shoirlar, ammo –
Ularni tahqirlab kulma, kitobxon.
O'z turmushing bilan teng qilma aslo,
Pastga urma shoir ahlin beomon.

Aziz o'quvchim, ey tanqidchi nodon,
Hech bo'lmasa, bor-ku shoir ko'zida –
Tomchi shabnam, parcha bulut va osmon,
Shular ham yo'q axir sening o'zingda.

Senga xotining-u o'zing bo'lsang bas,
O'z qonunlaring bor, sen shundan mamnun.
Ammo shoir esa – olam-jahon mast,
Qalbiga sig'maydi, yetmaydi qonun.

Mayli, itday o'lay devor ostida,
Tepkiladi hayot mayliga butun.
Tangri meni qorga burkab gohida,
O'pdi peshonamdan gohida qyun.

1908





BULBUL CHAMANI

(Doston)

1

Suv qaytganda, dengiz tubidan
Ko'chiraman qatma-qat xarsang.
So'ngra horg'in eshagim bilan
Yuqoriga tashiyimiz arang.

Temir yo'lga eltamiz uni,
Taxlaymiz-u, so'ng qaytamiz jim.
Yengil tashlab jundor oyog'in
Hangramoqqa boshlar eshagim.

Hangraydi u benihoya shod,
Yukdan ozod – shunga vaqti chog'.
Yo'l ustida esa, bor obod
Soya-salqin ajib chaman bog'.

Chaman bog'ni o'ragan to'siq,
To'siqdan-chi, mo'ralar gullar.
Tinmay kuylar irmoqlar qo'shiq,
Xonish qilar tinmay bulbullar.

Har gal shu bog' darvozasiga
Yaqin kelib hangrar eshagim.
Uning xunuk ovozasiga
Ichkaridan kular allakim.

Kuladi-yu, so'ng kuylar asta,
Men-chi, solib mastona quloq,
Qistayman-u yo'rg'amni pastga,
Dengiz yoqqa boqaman uzoq.

Kunduz asta so'na boshlar jim,
 Butazorda o'rmlaydi tun.
 Hayron bo'lar sho'rlik eshagim:
 «O'yga cho'mib qolding ne uchun?»

Aylandimi issiqdan boshim,
 Yoinki bu oqshomgi xayol. –
 Bilolmayman, tushmi bu, yo chin,
 Ko'z oldimda o'zga bir hayot...

Men bechora tor kulbam ichra
 Ne kutarman, ne so'rar ko'ngil?
 Qulog'imdan ketmaydi sira
 O'sha bog'da sayragan bulbul.

Eshitilmas u gulbog' aro
 Bu hayotning tahqir ovozi,
 Ko'rinadi darchadan har shom
 Allakimning harir libosi.

Oqshom asta yoyganda tuman,
 Bog' yonidan o'taman har bor.
 Qo'shiq bilan, noz-ishva bilan
 Har bor meni chorlaydi nigor.

Nimanidir tiklar xayolim,
 Tinglaganda o'sha qo'shiqni.
 Zoriqishni bo'ynimga oldim,
 Sevib qoldim baland to'siqni.

Dam olmoqda charchoq eshagim,
 Ana, yotar qum ichra cho'qmor.
 O'zim esam sayr etaman jim
 Yoz tuning ko'rkiga xushtor –

O'sha bo'm-bo'sh, o'sha toshli yo'l
 Bukun sirli ko'rinar menga.
 Soya-salqin gulbog' sari ul
 Yetaklaydi meni oldinga.

Tikilaman boqqa intizor,
 Bilolmayman, o'tdi qancha vaqt.
 Shabnam qo'ngan chechaklar qator
 Ma'yusgina egib turar qad.

Kutar meni baxtmi yo kadar
 Gulbog' sari yo'limni bursam?
 Ne bo'larkin, xushxon bulbullar
 Navo qilgan chamanga kirsam?

Ortda qoldi o'tmishim menim –
 Yurak qilar oldinga parvoz.
 Ko'nglim sezar, bulbul chamani
 Qarshi olar meni sarafroz.

Aldamagan ekan yuragim,
 Dahshat emas ekan to'siq ham.
 Eshik qoqdim, mohro'y malagim
 O'zi ochdi va bo'ldi hamdam.

Olib kirdi gulzorga meni,
 Yo'llarimda lola, sunbullar.
 Qo'shiq aytib oldi ko'nglimni
 Sho'x irmoqlar, sayroq bulbullar.

Baxt makoni, orom maskani
Shodon menga ochdi keng quchoq.
Yor halqasin jaranglagani
Qulog'imda go'yo qo'ng'iroq.

Dilbar tutgan mayi lolagun
Aylantirdi tamoman boshim.
Toshloq yo'lni umutdim butun
Va unutdim sho'rlik yo'ldoshim.

5

Garchi og'ir hayot g'ashini
Unut qildi gulbog' havosi,
Ammo dengiz shovullashini
Bosolmadi bulbul navosi.

Tun bag'ridan esgan shabboda
Olib keldi to'lqinlar sasin.
Birdan paydo bo'ldi xayolda
O'sha tosh yo'l, hamrohim horg'in.

Otash qo'l-la chirmashib menga,
Og'ushimda to'lg'anar dildor.
So'rar mendan: «Ne bo'ldi senga,
O'yga cho'mding nechun, sevar yor?»

Qorong'uga tikaman nigoh –
Quchog'iga tortar u safo –
Qulog'imdan ketmaydi biroq
Gumburlagan, pishqirgan sado.

Uyg'ondim men qorong'u sahar,
 Bilmam qay kun – menga noayon.
 Go'dak yanglig' tinch uxlar dilbar,
 Tushida men balki namoyon.

Ehtirosdan yuzlari qirmiz,
 Tong nurida tin olar suluv
 Guvullaydi uzoqda dengiz,
 Demak, unda ko'paymoqda suv.

Asta ochdim moviy darchani,
 Eshitildi yiroqdan go'yo
 Najot so'rab, chaqirib meni,
 Inraganday ayanchli nido.

Chaqirardi meni eshagim,
 Faryod bilan o'kirib pastda.
 Yor ustiga choyshab tortib jim –
 Tashqariga yo'l oldim asta.

Xiyobondan pastga yo'l oldim,
 Qadamimdan uyg'ondi gullar.
 Etagimdan tortqilab qoldi
 Gul shoxlari misoli qo'llar.

O'sha tanish, yaqingina yo'l
 Menga uzoq tuyular endi.
 Mana, uyim joylashgan sohil,
 Eshagim ham shunda qolgandi.

Adashdimmi tong tumanida?
 Yo tabiat hazilimi bu?
 Yo'q, hammasi mening yodimda,
 Qoya, buta... bari o'sha-ku!



Qayda qoldi va lekin uyim?
Qoqilaman nogox, cho'qmorga.
Bir zamonlar tashlagan ko'yim
Zanglab yotar cho'kib qumlarga,

Uni olib pastga yugurdim,
(Hamon tushdek tuyular menga)
Shiddat bilan cho'qmorni urdim
Qatlam-qatlam ulkan xarsangga.

Tosh ostidan, balki tin olib,
Tong nurida rohat qilmoqqa –
Qisqichbaqa chiqdi surgalib
Va yostandi qumli qirg'oqqa.

Men qo'zg'aldim, qo'zg'aldi u ham,
Qisqichini ochganicha cho'ng.
Boshqa biri keldi-yu shu dam,
Tishlashdilar, yo'qoldilar so'ng.

Men yurgan tor so'qmoqda sekin
Uyim yoqdan, yengil, beozor –
Allakimning hayda eshagin,
Ishchi kelar, qo'lida cho'qmor.

1914–1915

Erkin VOHIDOV tarjimalari.





* * *

Jamoling shunchalar tanishki menga,
Birga yashagansan men bilan go'yo.
Uymi, mehmon, ko'cha... bormay qayerga
Bo'lur ko'z oldimda surating paydo.

Qadam tashlagandek bo'lasan, yursam,
Qayda bo'lsam, sen ham shu yerda tayyor.
Sen emasmi, yengil odimlab, erkam,
Ortimdan yurguvchi tunlari bedor?

Eshikdan bosh suqib, boqmasimdanoq
Sen emasmi o'sha bo'luvchi g'oyib –
Na tutib, na ko'rib bo'ladi mutloq,
Sen yoki tushmisan ajib, g'aroyib?

G'aram ortidagi go'riston aro,
Qabr tepasida o'rab chit ro'mol,
So'zsiz o'tirishing ko'rganda goho –
O'sha senmasmi deb o'ylayman darhol.

O'tirganing ko'rib bormoq bo'ldim ham,
Yaqinlashsam nari sen ketding ammo.
Daryo tomon tushding kuy aytib shu dam.
Qo'ng'iroqlar berib oqshomgi sado,

Sening kuylaringga bo'lganida jo'r –
Men xavf-xatar bilan kutdim, yig'ladim.
Ammo qo'ng'iroqlar tinishi bilan
Marg'ub ovozing ham birdan bo'ldi jim...

Fursat o'tdi, sendan bo'lmadi xabar,
Hilpiradi durrang daryo tomonda ...
Qancha dard chekmayin, ammo muqarrar
Seni ko'rmoqlikka umid bor menda.

1908

* * *

Chuqur go'rga ko'marlar o'lsak,
Tepamizdan unar ko'm-ko'k qir.
Shunda bizga uzoq, balanddan
Yoqqan kabi tuyular yomg'ir.

Bu erinchak uyqu ichra biz,
Ne bo'lmoqda, so'ramaymiz ham.
Tomchilasa, bilamiz – kech kuz,
Sharillatsa, deymiz, ha, ko'klam.

Bu mudroq kuy ko'nglingga na g'am,
Na zavq berar, o', naqadar soz.
Sevgi, firoq alamidan ham
Qabr toshi aylamish xolos.

Qayga shoshdik, bu tinch maskanda
Balki o'ylab ko'rarmiz biz ham –
Bu dunyoda gunoh, savob deb
Qanday ishni tushungan odam.

1915



* * *

Loygarchilik, ko'chada yomg'ir,
Ne qilsam deb bo'lasan xunob.
Siqilasan bo'lasan dilgir,
Ham yig'laging keladi shu tob.
Qandaydir dard qalbingga kirib,
Xayol chulg'ar tutumdek nuqul.
Eng yaxshisi tarasha yorib,
Samovarga o't yoqqan ma'qul.
Shunda choyning kayfi elitib,
Valdir-vulduraytgan so'zlarim –
Nogohoniy bir zavq baxsh etib,
Shoyad ochsa mudroq ko'zlaring.
Bu hayotda shoshmaslik uchun
Va nishonga bo'lish-chun sodiq!
Biz ichgan choy, qayg'uni butun
Haydab, shoyad, bergusi hordiq.

1915





IBLIS

Yur men bilan, yuraber birga,
Itoatkor, sodiq qulsimon.
Yarqiragan cho‘qqilar uzra
Birga parvoz qilamiz, inon.

Seni tubsiz jarlik ustida
Yeldiraman hayratga solib.
Sen dahshatga tusharsan, shunda –
Shodlanaman men ilhom olib.

Seni yomg‘ir tomchisidan ham,
Bosh aylanib tinishdan ko‘zing,
Qanotlarim ostida har dam
Tashlamasdan saqlayman o‘zim.

Yarqiragan oppoq tog‘liklar
O‘tloqlardan qoqqanda qanot,
Bir ilohiy go‘zal vujud-la
Baxsh etaman ajib harorat.

Yovvoyi hirs vujuding o‘rtab,
Sen yer uzra qilganing faryod –
Bilasanmi, insonlar o‘ylab
Topgan hiyla, bir zarra, hayhot!

Cho‘kkanida sokin biroq shom
Sen sehrimga rom bo‘lib butun,
Sahro kabi yonuvchi osmon –
Uzra yana balandroq shu kun–

Istarkansan qilmoqni parvoz
Seni olib uchaman birga.
Shunda bu yer yulduzdek bo'lib,
Yulduz o'xshab ko'rinar yerga.

Bu beqiyos, yangi dunyoni
Ko'rib hayron qolasan shu choq.
Men hazilga qilaman buni,
Bunday ijod menga o'yinchoq.

Sen dahshatda qo'rqib, bemajol
Pichirlaysan: «Qo'yib yubor» deb.
Qanotimni yozib bemalol
Men: «Uchaqol» deyman jilmayib.

Va ilohiy kulgim ostidan
Ucharkansan tosh parchasimon,
Yarqiragan bo'm-bo'sh osmonda
Parcha-parcha bo'lasan shu on.

1916





KALXAT

Mudroq sayhon uzra yasab doira
Kalxat qanot yozib qiladi parvoz.
Tevarak kimsasiz. G'arib kulbada
Ona farzandiga qilar mungli roz:

«Ma, nannangni yegin, emaqol mamma,
O's, ulg'ay, bo'yin eg, butni unutma».
Asrlar o'tmoqda jang-urush bilan,
Isyonlar avjida, yonmoqda qishloq.

Ammo mening go'zal, qadim diyorum
Hamon ko'z yoshlisan, o'shasan biroq.
Tokaygacha chekar onalar hasrat
Tokay charx uradi bosh uzra kalxat?

1916

SHUKRULLO tarjimalari.





YOMG'IRDAN SO'NG

Yomg'ir bukmish siren qomatin...
Tinnish yangroq bulbul xonishi;
Eshitilar quloqqa betin
Irmoqlarning achchiq nolishi.

Orzu qilar, kutar tabiat:
Gullar ochar jamolin, ko'rkini,
Yana xushbo'y bog'imda albat
Qushlar sayrar o'qtin va o'qtin.

1899 (1916?)

* * *

A. S. Pushkin xotirasiga.

Taqdir o'zi menga qilgan vasiyat
Muqaddas e'zoz-u ehtirom bilan
Doim yoritmoqni eng Oliy Maqsad –
Eshigin, tumanli mash'alim bilan.
Va faqat kechqurun – Ezgu Tilakka
Dunyoviy aqlim-la intilaman men,
Ilohiy qo'rquvni solib yurakka
Ilhom otashida toblanaman men.

1899





* * *

Bulutlar suzadi vazmin, erinchoq,
Moviy osmon bo'ylab misoli karvon.
Yo'llarim og'irdir, yo'lim ko'p yiroq,
Horganday qilt etmas osuda o'rmon.

Ostimda xirillar toliqqan otim...
Qachon men qarddon manzilga yetgum?..
O', unda, olisda, kimdir betinim
Qandaydir qo'shiqni aytadi ma'sum.

Nazdimda: gar tinsa o'sha sho'x sado,
Nafas olishim ham bo'lardi mushkul.
Otim ham qulardi yarim yo'l aro,
O'zim ham yetmasdim manzilga butkul!

Bulutlar suzadi vazmin, erinchoq,
Atrofdan mudraydi toliqqan o'rmon.
Yo'llarim og'irdir, yo'lim ko'p yiroq.
Ammo qo'shiq – menga yo'ldosh va darmon.

1900





* * *

Yomg'irli tun. Kezardim tanho,
Ko'hna uyda, darcha yonida –
Ko'rdim o'yga cho'mgan benavo –
O'z g'amimni – yolg'iz namdiyda
Boqar edi olisga ma'yus...
Tikildim men unga dam-badam,
Go'yo ko'rdim yuzida afsus –
O'tgan yoshlik belgisin shu dam.
U bir boqdi. Ezildi bag'rim,
Chiroq o'nib – tong ham oqardi.
G'amli ko'ngil darichasin jim
Yomg'irli tong asta qoqardi.

1900





* * *

Quvg'inda ham shubhada shoir –
Ayrilishda turadi xolis.
So'nar tungi taassurot bir-bir,
Najod ufqi xira va olis.

Yo'q ko'kida sham'i shabiston,
Neni istab, qay tomon jilsin?
U shubha ham quvg'inda, hayron
Turib qoldi yo'lda, na qilsin?

Ammo aql qilgusi bovar,
Umid yonar ko'zida chaq nab:
Uyg'onib kun, ko'rsatar ruxsor
Va olislar boqar charaqlab.

1900

* * *

Garchand avvalgicha maromda adib
Dovruqsiz, tumanli o'z ijodida
Hayotning ko'p qadim nafis va ajib
Kuylarin eltsa-da lira tojida.
Biroq yaqinlashar maqsadga shoir,
Intilar, haqiqat yetaklab, chorlab
Va nogoh olisda ko'ringay nodir,
Ilgari notanish, yangi nur porlab...

1900



* * *

Chopaylik, chopaylik, erk o'g'li, tezroq,
Aziz vatanga!
Tabiat sasiga ishondim mutloq,
Sen inon menga!
Bunda dud, to'zondan osmonni ko'rmoq,
Maholdir, mahol!
Chopaylik, chopaylik; erk o'g'li, tezroq,
Kenglikka darhol!
Chopishar... Orqada qolmish maydonlar,
Atrof dala-tuz.
Ko'zi ilg'amas cheksiz uva, sayhonlar
Tebranganomuz...
Chopishar farzandlar quyosh, hurayyom
Istiqboliga...
Va oldi ona yurt e'zoz-u ikrom
Ila bag'riga...
Olib erkaladi, quchdi ardoqlab,
Ochib keng quchoq.
Sabza olislarda jaranglab qutlab –
Turdi qo'ng'iroq...
Oldi-yu so'ng aldab, ayanchli xatar
Yo'lda beshafqat
Topshirdi tashvishli, dahshatli kunlar
Izmiga abad...

1900 (1916)



* * *

Osmon yorishmoqda. Tun jonsiz misol.
Tegramdir bahaybat daraxtzor. Lekin
Olis va noma'lum shaharning betin
Suroini quloqqa chalinar yaqqol.

Bahaybat binolar ko'rinar qator,
Minora, xo'mraygan shinaklari ham;
Tosh devor o'ragan qora daraxtzor,
Asriy mag'rur qal'a kavaklari ham.

Shunday, sinchkov aql azaldan buyon,
Halok shaharlarning unut suronin
Va borliqning mavjli jo'shqin ummonin
Tiklamoq istaydi, tiklashi ayon.

1900





IKKINCHI CHO‘QINISH

Qor bo‘roni ochdi mening eshigim,
Sovuqdan muzladi, muzladi xonam.
Yana kumushsimon jom ichra shu dam
Ikkinchi marta men sajdaga keldim.
Va yangi olam qo‘yarkan qadam,
Bilaman odamlar, ishlar borligin,
Yovuzlik yo‘lidan yursa gar odam
U dunyoda unga jannat yorligin.
Sovub borayotgan shu yer – tuproqda
Toldim jonona lutfidan behad.
Qor bo‘ron uchquni – yaxcha yanoqda
Bebaho tosh yanglig‘ tovlanar yalt-yalt.
Ikkinchi cho‘qinish baxti bu fursat
Qalbimni muz etdi, o‘rtadi siynam.
Sen va‘da qildingmi bir oniy lazzat?
Bashorat etdingmi kelishin ko‘klam?
Qara, xursandlikdan yurak tinchimas!
Yerni qoplab olmish qor uyum-uyum.
Hech ko‘klam o‘lmaydi va kerak emas:
Uchinchi dunyoga kelmoq bu o‘lim.

1907



* * *

Men ne uchun atadim
Shaydoyi deb o'zimni,
Sen ne uchun kelarding
Ikki qilmay so'zimni?
Nahot ho'ngrash uchun so'ng
Sovuq kamin yonida,
Nahot o'ynash uchun so'ng
O'chgan o'tin yonida?

Yoki haqiqatan baxt
 Yanglish va sarsarimi?
Yoki chindan men endi
 Zaif, kasal, qarimi?
Aslo! Kulda yaltirar
 Hali oxirgi uchqun,
Demak, olov bor ekan
 Yong'in chiqishi uchun!

1908





* * *

Shunday. O'tdi yillar bo'roni.
Nam va qora egatlarga bot
Kirdi mujik. Bahor suroni
Yana qoqdi tepamda qanot...

Ham dahshatli, ham yengil, ham zil;
Bahor menga pichirlar: uyg'on...
Sevinaman men unga jon-dil,
G'oyibona o'paman, inon.

Va behad tez tepadi yurak
Va yosharar benihoyat qon,
Oq bulutlar ortidan yuksak
Ilk muhabbat jilo qilgan on...

Unut, unut foniy olamni,
Qanot qoq-u uch o'sha yoqqa...
Yo'q, bazmda emasdim yakka!
Yo'q, unutmam hech o'sha damni!

1909





* * *

Och, xasta erksizlik ochsa quchoq,
Ayyom ayyom emas, yil ham yil emas.
Qachon tuga boshlar dalalar boshqoq,
Qachon xo‘rlangan xalq oladi nafas?

Mana, shitirladi qorong‘uda don
Goh qaddini tiklab, gox, qilib sajda.
So‘zlar shabbodaga tun bo‘yi doston:
Deya gullash payti boshlandi, avjda.

Xalq – barcha gullarning gultoji erur,
Gullarga baxsh etar go‘zallik, chiroy.
Hukmron yoz albat rizq-u ro‘z berur,
Bizni ham – benasib etmas hoynahoy.

1909





* * *

Men bahor kunini o'tkazdim diqqat,
Yuvilmagan darcha oldida;
Rafiqam zerikar, kuylar betoqat,
Asir qushday devor ortida.

Yig'ardim men maktub, esdaliklarim,
Ehtirossiz hamda shoshilmay;
Aniq ayon bo'lib qoldi qismatim:
Umr guvlab o'tmish, na qilay.

Fikr, bahslar qaytib kelishar yana,
Tunlar kelar g'amgin, erinchoq...
Oyna pardalarin tushirmoq nega?
Qalbda yog'du so'ngan-ku biroq.

1909





MOSKVA TONGOTARI

Yoqimlidir subhidam turmoq,
Nafis izni qumlikda ko'rmoq.
Yoqimlidir seni eslamog,
Men bilan sen xushro'yim har choq.

Sevaman men seni, g'ururim,
Beg'amgina yoshligim, nurim,
Kremling – tiniq jamoling,
Shu tong sening – zebo kamoling.

1909

* * *

Uzildi-yu ko'rfaz bag'ridan,
Ona tuproq soxillaridan –
Jahon sayrin etib ixtiyor,
Suzib ketdi kemalar qator.
Hayhot, xuddi shular singari,
Ey, siz, oltin yoshlik yillarim,
Siz ham mendan ketdingiz yiroq,
Qaytmas bo'lib ketdingiz biroq.

1909





TUSH

Onamga

Tush ko'rdim: qadimiy sag'anaga biz
Dafn etilganmiz; tepada hayot
Hamon sershovqin-u hamon ma'nisiz;
Va so'nggi kun eshik qoqadi hayhot.

Mahshar tongi asta oqara boshlar.
Olisda yangraydi suri Isrofil.
Ustimizda esa – qirmizi toshlar
Va cho'yan maqbara bosib turar zil.

U kelar tumanli olisdan, kelar
Qilich yalang'ochlab farishtalar ham;
Kitoblardan zerkib, inonmay bizlar
O'qiganimizga o'xshab chinakam.

O'sha ark gumbazi ostida ovloq
Yotar osoyishta mening rafiqam.
Unga aziz emas ozodlik biroq,
Tirilib turmoqni istamas hecham...

Va yonimda onam pichirlar menga:
«O'g'lim, hayotda sen eding baquvvat,
Gumbazni qattiqroq itar qo'ling-la,
Tosh qulab tushadi ustingdan albat»

«Yo'q, oyi. Tabutda dimiqdim raso,
Endi qayda mening avvalgi kuchim.
Sig'inib, astoydil qiling iltijo,
Toshni farishtalar qulatsin uchun».

1910



* * *

O‘, qancha kuldiniz ustimizdan siz,
Nafrat bilan bizga boqdingiz xunxor,
Sizni osoyishta she‘rlar bilan biz
Etganimiz uchun qattiq sharmisor!
Biroq biz – o‘shamiz hamon. Shoirlar,
Yangidan qo‘msaymiz sizni, siz uchun,
Muqaddas sevgini saqlab mutabar,
Takrorlab qadimiy ahdni bus-butun...
Avvalgiday oddiy sokin xonamiz,
Devorlarga boqib vaqtni bilurmiz...
Mayli, kulavering, bizga inonmang
Va yerning ostida jilg‘alar kuylab,
Shu‘la daydishingini tarannum aylab
Yozgan she‘rlarimiz aslo o‘qimang...
Tyutchev vasiyatini unutmang biroq:
Sukut qil. Yashirin hamda sir saqla
Tuyg‘u-hislaringni, orzungni har choq...

1911





* * *

Telbalarcha sevdim yashashni g'oyat.
Abadiylashtirsam butun borliqni,
Insoniylashtirsam nobakorlikni,
Bo'lmaganni bunyod etsam men abad!

Mayli bo'lsin og'ir hayot uyqusi,
Mayli, shu uyquda ololmay nafas –
Quvnoq o'g'lon kulib umid-orzusi
Kelajakda ta'rif etsa ajabmas!

G'amnokligin afu etamiz – shoni,
Mo'jiza qudrati shumidi nahot?
U edi – ezgulik va nur o'g'loni,
U – erk tantanasi edi umrbod!

1914

Mavlon IKROM tarjimalari





* * *

Unutardim g'amgin yerda tamoman
Nedir g'oliblig-u mardlik, sharaf-shon,
Stolimda turgan oddiy uromdan
Rasming menga kulib boqqani zamon.

Ammo vaqt yetdi-yu, sen uydan ketding,
Tunga otdim men ham aziz uzukni.
Taqdiring bo'lakka sen in'om etding,
Men ham unut qildim barno yuzingni.

Qator kunlar mal'un va badbaxt,
Darz soldi umringa may-u ehtiros...
Seni xotiramdan chiqarmay hech vaqt,
Seni yoshligimday chorlaganim rost.

Men seni chorladim, tashlamading ko'z,
Ko'z yoshi qilsam ham etmading shafqat.
Ko'm-ko'k plashchingga o'ralib ma'yus,
Namchil tun bag'rida ketarding faqat...

Bilmadim, azizim, go'zalim bir yo'l –
Qaydan panox, topding shu ketganingcha.
Uyquga g'arqman men: tushimda nuqul
Ko'm-ko'k plashching-u u namchil kecha...

Nafosat, sharafni etmam o'y-xayol,
Bari-bari o'tdi: yoshlig-u viqor.
Stolimdan rasming o'z qo'lim ila
O'zim olib qo'ydim – shu bo'ldi qaror.

1908



* * *

Soʻzlar shiviridan tugʻilding, erkam,
Oqshomgi bogʻ sari soʻng qoʻyding qadam,
Olcha gullariga chulgʻandi-da, bogʻ,
Bahoriy saloming yangradi quvnoq.

Shundan beri na kun, na bir tun bordir,
Ruhing bir soyaday men bilan yordir,
Yordir menga oppoq, bogʻlar nafasi,
Hovuz boʻylari, yengil qadaming sasi.

Qurgʻur uyqusizlik boʻlmishdir hamroh,
Uni tun qaʻriga haydab boʻlmas, oh!

1908





SPOIYETOLIK QIZ

Cherkovning shamiday qomating mavzun,
Qilichday qarashing jonga qilur qasd,
O‘, qiz, porloq visol emasdir orzum,
Zohidday jismimni o‘tga bersam, bas!

Baxt talab qilmayman. Lutfing na darkor?
Qo‘pol iltifot-la yetkazmasman g‘am!
Panjarangdan boqib rassomday bir bor,
Gullar uzishingni ko‘rsam-u sevsam!

Shamollar qanoti, quyosh shu‘lasi
Seni ko‘zdan yiroq qilar, Mariya,
Ruxsat ber, farishtam, ko‘zim quvnasin,
Shirin bir dard cho‘ksin qalbim qa‘riga.

Zulfingning tim qora jingalagiga,
Sirli she‘rlarimdan taqurman olmos.
Qora chashma ko‘zing tubsiz tagiga,
Oshifta qalbimni tashlamog‘im rost...

1909





* * *

Yoshlik yillar mavji jo'sh urar yana,
Kuch qaynar yurakda, fikrlar keskin...
Ammo baxtdan yo'qdir nom-u nishona,
Taajjublarga ham o'rin yo'q lekin!

Yillar dahshatlidir, to'la xavf-xatar,
Ta'qib, ig'volardan muhit iborat.
Ulardan sog'-omon o'tolsang agar,
Mo'jiza bor ekan, derding, nihoyat.

Nihoyat, ko'rarding o'z ko'zing bilan
Baxtga ehtiyotsiz ekanin hayot.
Sezarding, ushalmas bu orzung bilan
Yarim umringni ham etmasliging shod.

Zavq, ijod kosasi limmo-lim to'lib,
Toshib chetlaridan to'kilganini,
Mening baxtim hissi – bizniki bo'lib,
Olam-la muloqat to'qilganini.

Mayin bir jilmayish ila bemalol
Eslab qo'yajaksan ba'zi-ba'zida:
Yotganin go'dakcha oddiy bir xayol,
Biz baxt deb o'rgangan so'zning mag'zida.

1912



A.A. Blok

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7334-2-8



9 789943 733428